

FORTEPIANO DARSLARIDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada fortepiano ta'limi jarayonida o'quvchi shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik aspektlar metodologik jihatdan tahlil qilingan. Forteplano darslarida qo'llaniladigan samarali metodlar hamda yosh ijrochilarning motivatsiyasi va emotsional jihatlarini hisobga olishning ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: fortepiano, ijodkorlik, musiqiy tafakkur, pedagogika, psixologiya, improvizatsiya, motivatsiya, repertuar, mahorat, refleksiya, kommunikativ.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ НА УРОКАХ ФОРТЕПИАНО

Аннотация. В статье представлен методический анализ педагогических и психологических аспектов, влияющих на развитие творческого потенциала ученика в процессе обучения игре на фортепиано. Научно обоснованы эффективные методы, используемые на уроках игры на фортепиано, а также важность учета мотивационно-эмоциональных особенностей юных исполнителей.

Ключевые слова: фортепиано, творчество, музыкальное мышление, педагогика, психология, импровизация, мотивация, репертуар, мастерство, рефлексия, коммуникативный.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING CREATIVE SKILLS IN PIANO LESSONS

Annotation. The article presents a methodological analysis of the pedagogical and psychological aspects that influence the development of a student's creative potential in the process of learning to play the piano. The effective methods used in piano lessons are scientifically substantiated, as well as the importance of taking into account the motivational and emotional characteristics of young performers.

Keywords: piano, creativity, musical thinking, pedagogy, psychology, improvisation, motivation, repertoire, mastery, reflection, communicative.

Musiqa ta'limining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Xususan, fortepiano darslari nafaqat texnik ijrochilik mahoratini o'rgatadi, balki musiqiy fikrlashni, estetik didni, refleksiv tafakkurni va mustaqil ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Ijodkorlikning shakllanishi o'quvchining psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi, musiqiy tajribasi, o'qituvchining pedagogik mahorati va dars jarayonida yaratilgan ijodiy muhit bilan chambarchas bog'liq.

Musiqa san'atidagi asosiy faoliyatlardan biri musiqa ijrochiligidir. Zo'r ijroni tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg'ularini his etamiz, yoki yunonlar aytganidek, «katarsis» – ichki, ruhiy poklanish va yangilanish jarayonini boshdan kechiramiz. Ijrochi – bastakor, kompozitor va tinglovchini bog'lab turuvchi halqadir. Musiqiy ijrochilik san'atidagi farqlar musiqiy cholg'uning o'ziga xos xususiyatiga, yakkaxon va ommaviy ijrochilik shakli, musiqiy asarning janri va shakli xususiyatiga, qolaversa, birinchi o'rinda ijodiy individuallik, ijrochining professional tayyorgarlik va mahorat darajasiga bog'liq. Ijrochi uchun tinglovchi psixologiyasini tushunish va his etish,

estetika talablari va auditoriya kayfiyatini to'g'ri anglash, muallif fikrini mohirlik bilan yetkazib berish, auditoriyani o'z irodasiga bo'ysundirish, tinglovchida go'zal estetik hissiyotlarni uyg'otish, ijodiy kayfiyat juda muhimdir. Ushbu maqolada fortepiano darslarida ijodkorlikning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi pedagogik va psixologik aspektlar, shuningdek, amaliy metodlar tahlil qilinadi.

Musiqiy tajribaga asoslangan holda yangi badiiy obrazlar yaratish, musiqani qayta talqin qilish, improvizatsiya qilish va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyati bu musiqiy ijodkorlikdir. Musiqiy ijodkorlik fortepiano sohasida muhim ahamiyatga ega.

Fortepiano ta'limida ijodkorlik quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Ijrochilik ijodkorligi – asarni o'z badiiy dunyoqarashi asosida talqin etish.
2. Improvizatsion ijodkorlik – musiqa yaratish jarayonida musiqadan ruhlanish, va uni erkin ifoda qilish.

3. Badiiy tafakkur – musiqa matnini obrazlar orqali tushunish va qayta qurish.

4. Texnik ijodkorlik – o'ziga mos bo'lgan texnik yechimlarni topish.

Mazkur jarayonlarni rivojlantirish o'quvchidan nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki mustaqil fikrlash, emotsional sezgirlik va ichki motivatsiyani talab qiladi.

Fortepiano darslarida quvchining individual psixologik va musiqiy xususiyatlarini hisobga olish, uning kuchli tomonlariga tayangan holda darslarni tashkil qilish, mustaqil izlanishga yonaltilish, quvchining ijodkorligini rivojlantirish ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik yondashuviga bog'liq. qituvchi qat'iy nazoratchi sifatida emas, balki ustoz va shogird sifatida harakat qilishi, ishonch va zaro hurmat muhitini yaratadi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchi o'z fikrlarini erkin ifoda eta oladigan psixologik qulay muhit yaratishi zarur. quvchiga ijodiy topshiriqlar berish, o'quvchining o'ziga xos talqinlarini qo'llab-quvvatlash, xatolarini jazolash emas, balki tahlil qilish orqali o'rgatish kiradi. Ijobiy emotsional atmosfera o'quvchi o'zini erkin his qilishini, demak ijodiy faoliyatga jalb etilishini ta'minlaydi. qituvchining pedagogik refleksiya, emotsional intellekt va kommunikativ kompetensiyalari asosiy ahamiyat kasb etadi. Chunki ijodiy muhit faqat vositalar majmui emas, balki insoniy muloqot madaniyatidir.

Fortepiano o'qituvchilari ijodkorlikni rivojlantirish uchun turli metodlardan foydalanadilar:

- Improvizatsion mashqlar: modal, ritmik, motiv asosidagi improvizatsiya.
- Rasm asosida kuylash: tasviriy san'at orqali musiqiy obraz yaratish.
- Musiqa texnologiyalaridan foydalanish: MIDI klaviaturalar, audio yozuvlar tahlili.
- Ansambl ijrochiligi: birgalikdagi ijodiy jarayonlar musiqiy fikrlashni kengaytiradi. Ushbu metodikalar o'quvchini jarayonga faol jalb etadi, uning musiqiy tafakkurini kengaytiradi.

Musiqiy tafakkur - musiqiy materialni tahlil qilish, solishtirish va qayta yaratish qobiliyatidir. Fortepiano darslarida u quyidagilar orqali rivojlanadi:

- Eshituv nazorati
- Ritmik va melodik strukturalarni tahlil qilish
- Asarlarni g'oyaviy jihatdan tushunish

Musiqiy tafakkur nafaqat ijrochilik mahoratini, balki shaxsning estetik dunyoqarashini, ijodiy salohiyatini va musiqaga blgan munosabatini shakllantiradi. Zamonaviy fortepiano pedagogikasi musiqiy tafakkurni rivojlantirishni qitish jarayonining asosiy strategik maqsadi deb hisoblaydi.

Musiqiy faoliyatda tafakkur asosan quyidagi jihatlarga bog'liq: asarning obraz qurilishi – bo'lishi mumkin bo'lgan assotsiatsiyalar, kayfiyat va ular ortida turgan fikrlarni o'ylab ko'rish; asarning musiqiy to'qimasi – garmonik tuzilishida fikrlar rivoji, kuy, ritm, faktura, dinamika, agogika, shakllanish mantig'ini fikrlab ko'rish; fikr va hissiyotlarning musiqa cholg'usi yoki nota qog'ozida mujassamlashishining mukammal yo'llari, usullari va vositalarini topish.

O'quvchilar ijodiy faoliyatga kirishishida motivatsiya asosiy rol o'ynaydi. Motivatsiya shaxsning faoliyatiga kirishishi, uni davom ettirishi va ma'lum maqsadga erishishiga ta'sir qiluvchi ichki psixologik jarayonlar majmuidir.

Musiqa bilan shug'ullanish insondan muntazam mashq, kuchli irodaviy tayyorgarlik qat'iylilik, emotsional barqarorlik va ijodiy faollikni

talab qiladi. Ushbu jarayonlarning barchasi yetarli motivatsiyasiz samarali kechmaydi. Shuning uchun motivatsiya musiqiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi, quvchi va ijrochining eng muhim ichki energiya manbai sifatida qoraladi. Ichki motivatsiya musiqiy sishning eng mustahkam manbai hisoblanadi. U quyidagilardan tarkib topadi:

- Musiqa yaratishdan zavqlanish,
- zini ijodiy ifoda eish,
- Texnik sishdan mamnun blish,
- zini yoqtirgan asarlarini ijro etish.

Fortepiano darslarining emotsional-ta'limiy mohiyatiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Musiqa san'ati insonning emotsional dunyosiga eng kuchli ta'sir krsatuvchi omillardan biridir. Ayniqsa, fortepiano ijrosi o'z tabiatiga ko'ra rang-barang ohanglar, dinamika, tembr va fakturalarning keng imkoniyatlariga ega bo'lib, o'quvchilarda emosional tajribalarni uyg'otish uchun katta sharoit yaratadi. Tadqiqotchilar (L. Vygotskiy, B. Asafyev, K. Seashore) musiqiy idrokning asosida emotsional rezonans yotishini ta'kidlaydilar. Bu jarayon o'quvchining musiqiy kayfiyatni sezishi, tovush bo'yoqlarini his qilishi, musiqaning badiiy mazmunini tushunishi, obrazlar bilan ichki aloqaga kirishi kabi jarayonlar orqali shakllanadi. Demak, texnik mahorat emotsional rivojlanish bilan birgalikda boradi va biri ikkinchisini to'ldiradi.

Emotsional rivojlanishning boshlang'ich nuqtasi — bu eshituv sezgirligidir. O'quvchi ohangning yo'nalishini, dinamikaning o'zgarishini, tovush sifatining farqlarini, tembr va fakturaning kayfiyatga ta'sirini his qilgan sari emotsional idroki boyib boradi.

O'qituvchining musiqiy asarni tasvirlash, uning mazmunini ochish, poetik assotsiatsiyalar berishi o'quvchining emotsional tafakkurini faollashtiradi. Masalan, "Bu parcha quvonchli tongni eslatadi", "Mana bu o'rin xayolparast, sokin kechqurun kayfiyati bilan bog'liq" kabi izohlar orqali o'quvchi musiqani "ko'rishni" o'rganadi.

Ijro jarayonida o'quvchi o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalay olishi uchun darsda ishonchli va qo'llab-quvvatlovchi muhit zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijobiy emotsional atmosfera o'quvchining, tashabbuskorlik, ijodkorlik, musiqa orqali o'zini ifodalash, ichki motivatsiya darajasini keskin oshiradi. Musiqa darslari bola emotsional dunyosining boyishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Fortepiano ijrochiligidagi emotsional sezgirlilik, musiqa orqali o'z holatini ifodalash, asar obrazlarini his qilish ijodkorlikning psixologik asosini tashkil etadi. O'quvchining emotsional holatini inobatga olgan holda, o'qituvchi mos repertuar, individual yondashuv va psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi kerak.

Improvizatsiyaga asoslangan o'qitish quvchining ijodkorlik faoliyatida ta muhim ahamiyatga egadir. Improvizatsiya ijodkorlikni rivojlantirishning eng tabiiy va samarali usuli hisoblanadi. O'quvchi tonalitet, ritmik formulalar, dastlabki motiv yoki akkordlar asosida erkin ijro qilishga o'rgatiladi. Bu usul musiqiy fikrlashni tezlashtiradi, ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi va o'ziga ishonchni oshiradi.

Repertuar o'quvchining yoshi, texnik imkoniyatlari va psixologik tayyorgarligiga mos bo'lishi kerak. Repertuar tanlashning ilmiy-pedagogik asoslari quyidagilardan iborat blishi tavsiya etiladi:

- turli davr kompozitorlarining asarlarini tanlash,
- obrazli asarlarni kiritish,
- o'quvchilarning qiziqishlariga mos moslamalar qo'llash katta foyda beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fortepiano darslarida ijodkorlikni rivojlantirish murakkab, ko'p qirrali pedagogik va psixologik jarayon bo'lib, u o'qituvchidan metodik mahorat, psixologik sezgirlilik va ijodiy yondashuvni talab etadi. Ijodkor o'quvchi shakllanishi uchun shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ijobiy emotsional muhit, improvizatsiyaga asoslangan metodlar, to'g'ri repertuar tanlash va refleksiv faoliyatlar muhim omillar hisoblanadi. Fortepiano ta'limi jarayonida ijodiy salohiyatni rivojlantirish musiqiy ta'limning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u o'quvchining umumiy intellektual va emotsional rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авлиякулов Н.Х. Педагогическая технология.-Т., 2009г
2. Jalilov Sh.I. Musiqa darslarini integrativ asosda tashkil etishning metodologik aspektlari. "Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlarning ta'lim amaliyotiga tatbig'i" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand viloyati PYMO'MM, 2024.
3. Jalilov.Sh.I. Musiqa nazariyasi fanini qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari. SCIENCE AND EDUCATION.SCIENTIFIC JOURNAL 2 february 2025
4. Jalilov.Sh.I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy integrativ usullari. NavDPI ilmiy-uslubiy Axborotnomasi. Avgust, 2024
5. Qodirov.R. (2005) Musiqa psixologiyasi.